



## ANDIJON VILOYATI OLTINKO‘L TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 28-avgust

224-1-15-Q/25

Oltinko‘l tumani hokimligi

### **O‘rmon fondi yerlarida o‘rmon tuzish, geodeziya va xatlov ishlari natijalari to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmon to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi 475-sonli qonunining 18-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-yanvardagi “O‘rmonlarning davlat hisobini va monitoringini yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 31-sonli qarorining, 1-ilovasi 4-bo‘lim 2-xat boshi (o‘rmonlarni davlat hisobini yuritish hujjatlari, o‘rmon tuzish loyihalari, davlat o‘rmon fondini xatlovdan o‘tkazish va tekshirish materiallari asosida davlat o‘rmon xo‘jaligi organlari tomonidan to‘ldirilib, tegishli tuman (shahar) hokimining qarori bilan tasdiqlanadigan hujjatlar)ga O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 6,76-moddalariga va Andijon davlat o‘rmon xo‘jaligining 2025-yil 18-avgustdagi 01/6-273-sonli xatiga asosan “Yashilloyiha” loyihalash instituti tomonidan Andijon davlat o‘rmon xo‘jaligida amalga oshirilgan o‘rmon tuzish, geodeziya va xatlov ishlarini o‘tkazilganligini inobatga olib, Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6,25-moddalariga asosan

### **QAROR QILAMAN:**

1. Andijon davlat o‘rmon xo‘jaligining 2025-yil 18-avgustdagi 01/6-273-sonli xati ma‘lumot uchun qabul qilinsin.
2. Andijon davlat o‘rmon xo‘jaligi balansida bo‘lgan yer maydonlarida o‘rmon tuzish, geodeziya va xatlov ishlarining yakuniy natijalari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar ma‘lumot uchun qabul qilinsin.
3. Andijon davlat o‘rmon xo‘jaligi balansida bo‘lgan 116,7 gektar yer maydoni va mavjud o‘rmonzorlari hisobotidagi yer toifalari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
4. Andijon davlat o‘rmon xo‘jaligi o‘rmon fondi yerlarida noqonuniy yerdan foydalanish ishlarini bartaraf etish hamda kelgusida yo‘l qo‘ymaslik, o‘rmonzorlar va ko‘p yillik daraxtzorlarni himoya qilish va rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab

chiqish uchun oʻrmon xoʻjaligi direktori (Q.Abidov) shaxsan javobgar ekanligi qayd etilsin.

5.Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining qishloq va suv xoʻjaligi masalalari boʻyicha oʻrinbosari M.Umarovga yuklatilsin.

**Tuman hokimi**



**O.Rasulov**

Oltinko‘l tumani hokimining  
2025-yil 28-avgustdagi  
224-1-15-Q/25-son qaroriga  
1-ilova

ANDIJON DAVLAT O‘RMON XO‘JALIGI YER MAYDONLARINING TOIFALARI BO‘YICHA TAQSIMLANISHI

Shakl-1

| Tumanla<br>r nomi                                | №<br>kv | Umu<br>miy<br>mayd<br>on,<br>ga | O‘rmonli yerlar maydoni, ga |                        |                             |                             |                           |                       |          |              |                           | o‘rmonli yer maydon-jami | O‘rmonsiz yerlar maydoni, ga |              |        |        |                  |         |                         |                           |                    |                         |               |      | o‘rmonsiz yerlar jami |
|--------------------------------------------------|---------|---------------------------------|-----------------------------|------------------------|-----------------------------|-----------------------------|---------------------------|-----------------------|----------|--------------|---------------------------|--------------------------|------------------------------|--------------|--------|--------|------------------|---------|-------------------------|---------------------------|--------------------|-------------------------|---------------|------|-----------------------|
|                                                  |         |                                 | O‘rmon<br>b-n<br>qoplangan  |                        | tutashmagan o‘rmon ekinlari | ko‘chatxona va<br>issiqxona | o‘rmon b-n<br>qoplanmagan |                       |          |              |                           |                          | cug‘oriladigan yerlar        | Pichanzorlar | yaylov | suvlar | bog‘zor, uzumzor | yo‘llar | turar joy va tomorqalar | botqoqlik va sho‘r yerlar | qumliklar, toshloq | muzliklar, taqir yerlar | boshqa yerlar |      |                       |
|                                                  |         |                                 | jami                        | sh. j. O‘rmon ekinlari |                             |                             | siyrak o‘rmon             | yongan, nobut bo‘lgan | kesilgan | yalangliklar | o‘rmon b-n<br>qoplanmagan |                          |                              |              |        |        |                  |         |                         |                           |                    |                         |               |      |                       |
| 1                                                | 2       | 3                               | 4                           | 5                      | 6                           | 7                           | 8                         | 9                     | 10       | 11           | 12                        | 13                       | 14                           | 15           | 16     | 17     | 18               | 19      | 20                      | 21                        | 22                 | 23                      | 24            | 25   |                       |
| Andijon davlat o‘rmon xo‘jaligi Andijon bo‘limi. |         |                                 |                             |                        |                             |                             |                           |                       |          |              |                           |                          |                              |              |        |        |                  |         |                         |                           |                    |                         |               |      |                       |
| Oltinko‘l                                        | 6       | 49,6                            | 11,0                        | 11,0                   | 21,9                        | 3,4                         |                           |                       |          |              |                           | 36,3                     | 6,5                          |              |        | 1,6    | 0,3              | 0,0     | 1,8                     |                           |                    |                         | 3,1           | 13,3 |                       |
|                                                  | 7       | 13,5                            | 13,3                        | 13,3                   |                             |                             |                           |                       |          | 0,2          | 0,2                       | 13,4                     |                              |              |        |        |                  |         | 0,0                     |                           |                    |                         | 0,1           | 0,1  |                       |
|                                                  | 8       | 53,6                            | 10,1                        | 10,1                   | 17,5                        |                             |                           |                       |          |              |                           | 27,6                     | 5,5                          |              |        | 3,3    | 9,8              | 1,0     | 2,9                     |                           |                    |                         | 3,5           | 26,0 |                       |

|      |   |       |      |      |      |     |  |  |  |     |     |      |      |  |  |     |      |     |     |  |  |  |     |      |
|------|---|-------|------|------|------|-----|--|--|--|-----|-----|------|------|--|--|-----|------|-----|-----|--|--|--|-----|------|
| jami | 3 | 116,7 | 34,4 | 34,4 | 39,4 | 3,4 |  |  |  | 0,2 | 0,2 | 77,3 | 12,0 |  |  | 4,9 | 10,0 | 1,0 | 4,7 |  |  |  | 6,7 | 39,3 |
|------|---|-------|------|------|------|-----|--|--|--|-----|-----|------|------|--|--|-----|------|-----|-----|--|--|--|-----|------|